UDK:809.437 5-3

O‘ZBEK TILIGIDA YANGI PEDAGOGIKA TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASAMA SO‘ZNING SINXRON VA DIAXRON MAVQEI MASALASI.
(A.G‘ULOMOV MISOLIDA)

Akmal Tursunov Raxmatullaeyvich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
Tel: (93) 437-37-11,
E-mail: akmal_tursunov_1971@mail.ru

Annatatsiya A.G‘ulomov asos solgan so‘z yasalishi nazariyasini akademik A.Hojiyev yangi cho‘qqiga olib chikdi. So‘z yasash tahlili so‘zning yasalish strukturasini, yasama so‘zning tuzilishini aniqlaydi. Bunda yasovchi va yasalma, ya’ni bu ikki qism orasidagi mazmuniy-morfologik munosabat belgilanadi. Tilning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, so‘z yasalishida ham o‘ziga xos munosabat mavjud. Yasama so‘z qismlari orasidagi munosabatning sinxron turlarini aniqlash nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ham ega.

Kalit so‘zlar: So‘z yasalishi, jarayon, morfologiya, morfemika,tadqiqotlar, leksik hodisa, tahlil, bo‘lim, soha,tilshunoslik,tushuncha, fikrlar.

Аннотация А.Гулямовым. Словообразовательный анализ определяет структуру словообразования, структуру псевдослов. В этом случае определяется материально-морфологическое отношение между мастером и творцом, то есть между этими двумя частями. Как и в других областях языка, словообразование имеет свои собственные взаимоотношения. Определение синхронических типов отношений между искусственными частями речи имеет не только теоретическое, но и большое практическое значение.

Ключевые слова: словообразование, процесс, морфология, морфемика, учение, лексическое явление, анализ, раздел, область, лингвистика, понятие, мысль.

Abstract. Slovoobrazovatelny analiz opredelyaet struktur slovobrazovaniya, struktur pseudoslov. V etom sluchae opredlyaetsya materialno-morfologicheskoe otnoshenie mejdu masterom i tvortsom, to est mejdu etimi dvumya chastyami. Kak i v drugikh oblastyakh zyzyka, slovobrazovanie imeet svoi sobstvennye vzaimootnoshenia. The definition of synchronizing types in relation to technical aspects has neither only theoretical nor practical significance.

Key words: Word formation, process, morphology, morphemic, studies, lexical phenomenon, analysis, section, field, linguistics, concept, thoughts.

Kirish.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida so‘z yasalishi muammosi o‘zbek tilshunosligi tarixida uzoq davrlardan buyon olimlar diqqatini jalb qilib keladi.

Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida ham, Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida ham, Fitratning «Sarf» asarlarida ham so‘z yasalishiga doir fikrlar bayon qilingan. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar doimo o‘zgarishda, rivojlanishdadir. Bundan aloqa vositasi bo‘lgan til ham mustasno emas. Tildagi ana shu dialektik taraqqiyotni e’tiborga olgan F.de Sossyur uni ikki holatda: 1) sinxron va 2) diaxron aspektda o‘rganishni tavsiya etgan edi. Sinxroniya uzluksiz rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘lgan ma’lum tilning muayyan bir davrdagi holatini, tarixiy uzluksiz rivojlanish zanjirining bir halqasini aks ettiradi.

Shuning uchun har qanday statika (sinxroniya) dinamikaning bir ajralmas qismi sanaladi. O‘zbek tilini sinxron planda o‘rganar ekanmiz, uning uzluksiz jarayondan “uzib” olinishi nisbiy xarakterga egadir. O‘zbek tilining hozirgi holati ajdodlarimiz foydalanib kelgan umumxalq tilining davomi va, ayni paytda, kelajak avlodga ham o‘tib borayotgan umumiy jarayondir. Shunday ekan, ma’lum bir tilni sinxron holatda o‘rganish qanchalik zarur bo‘lsa, uning tarixiy taraqqiyotini o‘rganish ham shunchalik katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun o‘zbek tilini sinxron o‘rganish bilan birgalikda diaxron tadqiqotlar ham olib borildi. Bu sohada S.Mutallibov, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.M.Shcherbak, S.N.Ivanov, O.Usmon, Sh.Shukurov, E.Umarov, B.Hasanov, H.Ne’matov, E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Matg‘oziyev, S.Ashirboyev, B.Bafoyev, Q.Maxmudov, Q.Karimov, F.Ishoqov, M.Qodirov kabi olimlarning xizmatlari kattadir.

Ma’lum bir tilning tarixiy grammatikasini va tarixini yaratish faqat shu tilga doir yozma manbalarni chuqur o‘rganish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ham 50-60-yillardan boshlab, qadimgi turk va eski o‘zbek tiliga doir yozma manbalarni nashr qilishga, bu manbalarning til xususiyatini o‘rganishga e’tibor qaratildi.

XX asrning 30-40-yillarida fe’l va ot yasalishiga bag‘ishlangan maxsus asarlar dunyoga keldi. Lekin so‘z yasalishi alohida xodisa sifatida va bu hodisani o‘rganuvchi “so‘z yasalishi” tilshunoslik fanining alohida bo‘limi sifatida ilk bor A. G‘ulomov tadqiqotlari asosida XX asrning 40-yillarida shakllandi. Muallifning 1949- yilda nashr qilingan “O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida” nomli maqolasida bu muammoga doir bir qator masalalar o‘sha davrdagi tilshunoslik nazariyalari qo‘lga kiritgan yutuqlar asosida ilmiy yechimini topdi. A. G‘ulomov so‘z yasalishi hodisasini shu kunga qadar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganilgani haqida fikr yuritar ekan, u hind-ovrupo tilshunosligi andozalari asosida morfologiya tarkibida o‘rganib kelinganini tanqidiy baholaydi va bu hodisaning hosilasi leksemani tug‘dirganligi tufayli so‘z yasalishi tilshunoslikning leksikologiya bo‘limiga ko‘proq daxldor ekanligini bayon qiladi. U bu hakda quyidagilarni yozadi: “So‘z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik rejada

ISSN 3030-3907

qarab kelamiz, xolbuki, so‘z yasash, qanday bo‘lmasin, biror usul bilan yangi so‘z hosil qilishdir. Demak, u leksika – so‘z”.

Eski grammatik ta’limotga ko‘ra, so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi morfologiyada ko‘rilar edi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdangina o‘xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisalardir: birinchisi – leksik hodisa, ikkinchisi – sintaktik hodisa. Bundan anglashiladiki, so‘z yasalishining morfologik rejada qaralishi hind-ovrupo til bilimining qurilmalariga tayanadi; hind-ovrupo til bilimi formal metod bilan ishlaydi hamda o‘z diqqatini fonetika va morfologiyaga berib, so‘z masalasini ikkinchi darajali o‘ringa «irg‘itadi», semantika hodisalarini, so‘zlarning ma’nolari haqidagi ta’limotni mutlaqo hisobga olmaydi. Darhaqiqat, so‘z yasalishi tilning ikki sathi bilan uzviy aloqadordir. So‘z yasalishi jarayoni ko‘proq morfemalar qo‘shiluvi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli u morfologiya, to‘g‘rirog‘i, morfemika bilan tutashadi. Yasovchi morfema bilan asos morfemaning qo‘shiluvi natijasida esa, yangi leksema vujudga keladi.

Demak, yasama so‘z so‘z yasalish hosilasi bo‘lgan birlik sanaladi va bu bilan leksikologiya materialiga aylanadi. Ana shu hosilani e’tiborga olgan holda A. G‘ulomov so‘z yasalishini dastlab leksikologiya tarkibida o‘rganishni tavsiya etadi. Lekin so‘z yasalishi muammosi bilan izchil shug‘ullanish jarayonida so‘z yasalishining leksikologiyadan farq qiladigan soha ekanligi, uning o‘ziga xos o‘rganish obyekti mavjudligini hisobga olib, so‘z yasalishi morfemika bilan morfologiya oralig‘idagi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida qaralishi lozim, degan xulosaga keladi. Muallif yozadi: “So‘z yasalishi tilshunoslik fanining ayrim bir bo‘limi, mustaqil lingvistik soha bo‘lib, u so‘zlarning yasalishini, yangi so‘z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bog‘liq holda so‘zlarning tuzilishini tekshiradi. Tilshunoslikning bu bo‘limida, birinchidan, yangi so‘zlarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan, mavjud yasalmalarning qanday paydo bo‘lganligi tekshiriladi. So‘z yasalish hodisasi o‘zining asosiy, yegakchi xususiyatlari bilan grammatika va leksikologiyaga yaqin turadi. Bu xususiyatlariga ko‘ra so‘z yasalishi ilgari tilshunoslikning ayrim bir sohasi emas, balki morfologiyada tekshirilib kelingan. Bunday o‘rganish eng asosiy usulda so‘z yasashning ham, forma yasashning ham bir tipda bo‘lishi... kabi xususiyatlarga asoslanadi”. [1]

A.G‘ulomov o‘zbek tilida so‘z yasalishi muammolarini monografik tadqiq etish chog‘ida faqat affikslar yordamidagina emas, balki undan tashqari bir qancha vositalar yordamida yangi so‘z yasash mumkinligining guvohi bo‘ladi. Shuning uchun ham muallif ularni jamlagan holda, o‘zbek tilida so‘z yasalishining quyidagi besh xil turi mavjud ekanligini aniqladi: 1) morfologik (affiksatsiya); 2) sintaktik (kompozitsiya); 3) leksik (transpozitsiya); 4) semantik; 5) fonetik. Morfologik usul so‘z yasashning ko‘rsatilgan usullaridan faqat bittasi ekanligini e’tiborga olgan

ISSN 3030-3907

holda, A.G‘ulomov so‘z yasalishi faqat morfologiya bilangina bog‘liq emasligiga ishonch hosil qildi. Shuning uchun ham so‘z yasalishi morfologiyadan ham, leksikologiyadan ham ajratilgan holda tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lishi lozim, degan fikrga keldi.

Shu tufayli “O‘zbek tili grammatikasi (I tom. Morfologiya)” kitobida o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk bor so‘z yasalishi masalasi professor A.G‘ulomov tomonidan alohida bo‘lim sifatida yoritildi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu davrda u so‘zning yasalish strukturasi bilan morfemik va morfologik tuzilishlari o‘rtasidagi farqlanishlarni e’tiborga olmadi. Shuning uchun ham muallif “So‘z yasalishi nimani tekshiradi?” degan savolga so‘z yasalishi bo‘limi so‘zlarning yasalishini, yangi so‘z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini o‘rganishi bilan birga so‘zlarning tuzilishini ham tekshirishini bayon qiladi. Bu o‘rinda so‘zning bir necha tuzilishga, ya’ni fonetik, morfemik, yasalish, morfologik tuzilishlarga ega bo‘lishi va ular o‘rtasidagi farq muallif nazaridan chetda qoladi. Buni payqagan A.G‘ulomov keyinchalik so‘zning fonetik, semantik, morfologik va yasalish strukturalariga ega bo‘lgan murakkab qurilma ekanligini bayon qiladi va so‘zning har bir tuzilishining o‘ziga xos xususiyati, boshqa tuzilishlar bilan munosabati haqida fikr yuritadi.

Uning ta’kidlashicha, so‘zning morfologik qismlarga bo‘linishi so‘z yasashga ham, so‘zning formasini yasashga ham aloqador: ikkalasida ham hosil qilish yo‘li (affiksatsiya) bir xil. Lekin so‘zning tuzilishini o‘rganish, uni qismlarga bo‘lish ikki xil: morfologik tahlil va so‘z yasash tahlili. Morfologik tahlil so‘zning morfologik tuzilishini, morfemalar tarkibini aniklaydi, shunga ko‘ra, u morfema tahlili, deb ham yuritiladi. Bundagi ikki qismga bo‘linish xususiyati “o‘zak va affiks” tusidagi grammatik zidlik holatidir. So‘z yasash tahlili so‘zning yasalish strukturasini, yasama so‘zning tuzilishini aniqlaydi. Bunda yasovchi va yasalma, ya’ni bu ikki qism orasidagi mazmuniy-morfologik munosabat belgilanadi. Masalan, yaxshilik (yaxshi – yasovchi so‘z, yaxshilik – yasalma). Bunday yasashni derivatologiya tekshiradi: o‘zak+affiks yoki negiz+affiks: notinchlik. Bunda affiks derivator sanaladi.

Ko‘rinadiki, muallif bu o‘rinda so‘zning yasalish tuzilishini morfologik tuzilishdan farqlagan holda doimo uch qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi: yasovchi asos (o‘zak yoki negiz) + derivant – yasalma (derivator). A.G‘ulomov so‘zning yasalish tuzilishi haqida fikr yuritar ekan, yasalma bilan yasovchi qism o‘rtasidagi mazmuniy davomiylik (motivatsiya) tushunchasiga katta e’tibor beradi. Darxaqiqat, bu so‘z yasalishida muhim o‘rin egallaydi. Ma’lum yasovchi qo‘shimcha qo‘shilib hosil qilingan yangi leksema yasashga asos qismning ma’nosini davom ettiradi. A.G‘ulomov shuning uchun ham yasama so‘zlarda yangi hosil qilingan element bilan avvalgisi (yasashga asos bo‘lgani) o‘rtasida mazmuniy

ISSN 3030-3907

aloqa mavjudligiga e’tibor qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi bo‘limining shakllanishi, bu bo‘limga doir atamalar tizimining izga solinishida professor A.G‘ulomovning xizmati katta bo‘ldi.[2]

A.G‘ulomov asos solgan so‘z yasalishi nazariyasini akademik A.Hojiyev yangi cho‘qqiga olib chikdi. U A.G‘ulomov ochiq qoldirgan ayrim noaniqliklarni sharhlashga harakat qildi. Xususan, so‘zning morfemik va morfologik tuzilishi masalasiga oydinlik kiritdi. Muallif so‘zning morfemik tuzilishi deganda uning necha ma’noli qismlardan – morfemalardan iborat ekanligini, so‘zning morfologik tuzilishi deganda esa, uning forma yasashga asos bo‘lgan va forma yasovchi qismini, ya’ni ikki qismni nazarda tutish lozimligini ta’kidlaydi. Bu jihatdan A. Hojiyev so‘zning morfologik tuzilishi bilan so‘z yasalish tuzilishi o‘rtasida qandaydir yaqinlikni ko‘radi.

Har ikkisi ham ikki tarkibiy qism – yasashga asos va yasovchi qismdan tashkil topadi. Lekin ular yasovchining nima yasashga ko‘ra farqlanishini ta’kidlaydi: so‘zning yangi shaklini hosil qilsa, shakl yasovchi, bir leksemadan yangi leksema hosil qilsa, so‘z yasovchi deb qaraydi. Shunga ko‘ra, morfologik tuzilish qismlari bilan so‘z yasalish tuzilishi qismlarini ham o‘ziga xos nomlaydi: shakl yasashga asos+shakl yasovchi+yangi so‘z shakli; so‘z yasashga asos+so‘z yasovchi+yangi so‘z (yangi leksema). Ana shu asosda morfologiya va so‘z yasalishini bir-biridan farqlaydi. Shakl yasalishi “Morfologiya” ning, so‘z yasalishi esa “So‘z yasalishi” bo‘limining obyekti sanalishini qayd etadi. U rus tilshunosligi andozalari asosida A.G‘ulomov, S.Usmonov, O.Qosimxo‘jayeva kabi olimlar tadqiqotlari orqali o‘zbek tilshunosligiga kirib qolgan va maktab grammatikalaridan qat’iy o‘rin olgan o‘zak va negiz tushunchalariga va bu tushunchalarni ifodalaydigan atamalarga umuman ehtiyoj yo‘qligini ta’kidlaydi.

Muallif bu haqda quyidagilarni yozadi: “Bunday qaraganda, negizni so‘zning leksik ma’no ifodalovchi qismi, so‘zdan shakl yasovchi affikslar olib tashlangandan qolgan qismi, deb tushunish va ta’riflashda to‘g‘ri ilmiy nazariy asos bordek ko‘rinadi, ya’ni bunda shakl yasalishiga asos bo‘ladigan qism negiz deb” qaraladi. Lekin terimchilarimizga so‘zining terimchi qismi ter+ im+chi kabi tarkibiy qismlarga bo‘linadi. [3]

Demak, “terim so‘zida ter o‘zak ekan, o‘z-o‘zidan, terimchi so‘ziga nisbatan uning terim qismi nima bo‘ladi?” degan savol tug‘iladi. Shunday ekan, so‘z tuzilishini yuqoridagicha qismlarga ajratish va ta’riflash to‘la va to‘g‘ri (asosli) bo‘la olmaydi”. Shunday qilib, muallif “so‘z yasalishi bahsida yasama so‘z hosil qiluvchi komponentlar o‘rganilishi”ni, “yasama so‘z hosil qiluvchi komponentlar shu so‘zning yasalish tuzilishini tashkil qilishi”ni, so‘z yasalish tuzilishi esa, “faqat ikki qismdan: yasashga asos+yasovchi qismdan iborat bo‘lishi”ni ta’kidlaydi.

ISSN 3030-3907

So‘zning morfologik tahlili uning faqat yasalishiga oid tuzilishini o‘z ichiga olishini, shakl yasalish tuzilishi esa, so‘zning shakl yasovchi qo‘shimcha va yordamchilardan iborat bo‘lishini bayon qiladi. Masalan: unumdorlik+**ni** so‘zining morfologik tuzilishi ikki qismdan – shakl yasalishga asos bo‘lgan qism – unumdorlik va shakl yasovchi qism **-ni** dan iborat ekanligini, unumdorlik qismining ichki tuzilishining morfologiyaga daxli yo‘qligini, bu tuzilish so‘z yasalish tuzilishiga aloqadorligini ta’kidlaydi. Ma’lum so‘z turkumlarining yasalish doirasida qilingan tadqiqotlar o‘zbek tili so‘z yasalishi haqidagi ta’limotning rivoji uchun muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Xususan, professor Y.Tojiyev so‘z yasovchi qo‘shimchalarning polifunksionalligi masalasini, uning affiksal omonimiya bilan munosabatini chuqur tahlil qilgan. [4]

Ma’lum bir so‘z yasalish tipiga kiruvchi motivlangan so‘zlarni ularning motivlovchilaridan farq qiluvchi umumiy ma’no ushbu tipga oid so‘zlarning so‘z yasalish ma’nosi hisoblanadi. Masalan: **pishiqchilik, to‘kinchilik, qimmatchilik, qurg‘oqchilik** kabi so‘zlarda **-chilik** qo‘shma affiksi yordamida yasalgan so‘zlar asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borligi ma’nosi so‘z yasovchi formant orqali ifodalanadi. Demak, so‘z yasalish ma’nosi so‘z yasalish formantiga xos ma’no bo‘ladi, shu formant bilan ma’noni reallashtiruvchi so‘z yasalish asosiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, **no-** affiksining otlarga qo‘shishdan hosil bo‘lgan **noumid, noiloj, nomunosib, noahil** kabi sifatlarga xos so‘z yasalish ma’nosini qiyoslasak, bularning har biri so‘z yasalishining alohida tiplari hisoblanishi aniq bo‘ladi.

A.G‘.G‘ulomovning ta’kidlashicha, so‘z yasalishi, tilshunoslik fanining ayrim bir bo‘limi, mustaqil lingvistik soha bo‘lib, u so‘zlarning yasalishini, yangi so‘z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bog‘liq holda so‘zlarning strukturasini tekshiradi. Ana shunday masalalardan biri so‘z yasalish ma’nosi tushunchasidir. Keyingi yillarda fan taraqqiyoti bilan bog‘liq holda so‘z yasalish ma’nosining talqini ancha chuqurlashdi, ayrim masalalar bo‘yicha fikrlar xilma-xilligi yuzaga keldi.

So‘z yasalish ma’nosi yasalma tarkibidagi qismlar munosabatidan tug‘iladigan, o‘zaro bir-birini taqozo etadigan va muayyan so‘z yasalish tipi (modellari)da aniqlanadigan ma’no sifatida talqin etilmoqda. Ma’lumki, so‘z yasalishi nazariyasi qisqa davr mobaynida morfologik, struktur-semantik, sintaktik-transformatsion, onomasiologik, funksional-semantik bosqichlarni boshidan kechirdi.

O‘zbek tilshunosligi bu sohada birinchi va qisman ikkinchi bosqichda turganligi sababli so‘z turkumlari doirasida yangi so‘z xosil qilish vositalari, so‘z yasash usullari, muayyan yasalmalar tavsifiga keng e’tibor berilgan. Shunday bo‘lsa-da, yasama so‘z mohiyati, so‘z yasalish ma’nosi, so‘z yasash andozalari va

ISSN 3030-3907

qoidalari kabi masalalar fan yutuqlari asosida atroflicha o‘rganilishi lozim. Xususan, so‘z yasalish ma’nosining o‘ziga xos belgilarini boshqa ma’no tiplari bilan qiyoslab o‘rganish til mazmun sathidagi qonuniy aloqadorliklarni ochishga yordam beradi.

So‘z yasalish ma’nosi deyilganda, odatda, affiksatsiya yo‘li bilan hosil bo‘ladigan ma’nolar tasavvur etiladi.Holbuki, o‘zbek tilida so‘z yasash usullari va vositalari xilma-xil ko‘rinishda bo‘lib, ular yordamida yuzaga keladigan ma’no tiplari til egalari ongida asrlar osha shakllangan va shakllanishi mumkin bo‘lgan ma’nolardir. Bu ma’no tiplari hozirgi til sistemasida bir xil mavqega ega emas. Agar affikisatsiya va kompozitsiya yordamida paydo bo‘ladigan ma’nolar hozirgi (sinxron) ma’no tipiga taalluqli bo‘lsa, semantik, sintaktik, leksik, fonetik, transpozitsiya (konversiya) usullari bilan hosil bo‘lgan ma’nolar tarixiy (diaxron) ko‘rinishdadir. Zero, keyingi tip ma’nolar tarixan uzoq davrlarning mahsuli sanaladi. Demak, so‘z yasalish ma’nosi barcha usul va vositalarda ko‘rinadigan ma’no tiplarini qamrab olishi zarur. Til qurilishida o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi bir qancha sathlarning belgilanishi ana shu sathlarga xos ma’no ko‘rinishlarini aniqlash, ularning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarining vazifasini aniqlash imkonini beradi. Tilning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, so‘z yasalishida ham o‘ziga xos munosabat mavjud. Bu munosabat motivatsiya munosabati bo‘lib, tilning har bir sinxron bosqichida tub va yasama so‘zlar aloqadorligini, yasalmani tashkil etuvchi qismlar orasidagi shakl va ma’no bog‘lanishlarini tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

O‘zbek tilshunosligida pedagogik texnologiyalar asosida so‘z yasalishi bo‘yicha yirik va mukammal tadqiqotlar yaratgan A.G‘.G‘ulomov ishlaridan birida shunday deb yozgan edi: “Yasama so‘zning ma’nosi yasovchi so‘zning ma’nosiga asoslanadi: o‘roq yasalmasining ma’nosi o‘rish harakati bilan asoslanadi (motivlanadi). Shunga ko‘ra, birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala element orasidagi munosabat motivatsiya/motivlash, asoslash munosabati sanaladi. Motivatsiya munosabatiga kirishuvchi birliklar tilshunoslikda turlicha nomlar bilan ataladi: yasovchi asos, yasama asos (Ye.A.Zemskaya), motivlovchi asos (B.V.Lopatin), bazaviy asos, keltirib chiqariluvchi (vivodimaya) asos (I.A.Yanko-Trinitskaya). Ye.S.Kubryakova affiks (formant)lardan farqlanuvchi, so‘z yasalishining muhim birligi bo‘lgan hodisa yasama tarkibidagi mustaqil qismni alohida belgilash zarurligini qayd etadi va qulay atamaning yo‘qligi sababli unga nisbatan yasovchi asos (proizvodyashaya osnova) atamasini ishlataverish mumkin, deb ko‘rsatadi.
O‘zbek tilshunosligida ham so‘z yasalishida qatnashadigan birliklar turlicha nomlangan: o‘zak, negiz, asos, baza, affiks (S.Ferdaus, O.Qosimxo‘jayev), leksik negiz (S.Usmonov), tub negiz, yasama negiz (U.Tursunov,

ISSN 3030-3907

J.Muxtorov).A.P.Hojiyev so‘zda uch xil tuzilish farqlanishi zarurligini maxsus ta’kidlab, “so‘zning morfema strukturasida ham negiz deb atalishi lozim bo‘lgan qism yo‘q”, deb muhim ilmiy-metodik xulosaga kelgan.

Ma’lumki, so‘z yasalishi birlamchi ishoralardan ikkilamchi ishoralar yaratishga eng ko‘p darajada maxsuslashgan sath hisoblanadi. So‘nggi yillarda til sistemasi birliklarini nominativ-onomasiologik tekshirishining keng ko‘lam kasb etishi tufayli yasama so‘zga obyektiv borliqqa hamda so‘zlar dunyosiga taalluqlilikdan iborat ikki yoqlama referensiya xosligi ta’kidlanmoqda. [5]

Shu asosda chex tilshunoslari yasama so‘z mazmunida onomasiologik baza hamda onomasiologik belgini ko‘rsatdilar. Onomasiologik bazisni nomlanuvchi obyekt (tushuncha)ning muayyan predmet, belgi va harakat guruhiga taalluqliligi mustahkamlansa, onomasiologik belgi o‘zgaruvchan mohiyat sifatida onomasiologik bazasini konkretlashtiradi, tavsiflaydi va bir yasalishni shu model asosida yasalgan boshqa bir yasalmadan farqlaydi. Masalan, ishchan, talabchan, ko‘ngilchan yasalmalarining baza tushunchasi ma’lum xususiyatga ega bo‘lgan belgi (sifat) kategoriyasi bo‘lsa, asosdan anglatilgan tushuncha (ish, talab, ko‘ngil) esa onomasiologik belgi hisoblanadi. Agar tub so‘zlarda baza va belgi yaxlit holda kelsa, yasama so‘zlarda ular alohida-alohida keladi va yasalmaning turli tiplarida ularning munosabati ham turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu sohada o‘zbek tilshunosligida ham dastlabki ishlar bajarilgan.

Tilda nomutanosiblik qonuniyatining amal qilishi tufayli tub va yasamalilikning chegarasini belgilash hamma vaqt ham oson emas. Negaki, birinchidan, yasama so‘zning ma’nosi uni tashkil etuvchi qismlar ma’nosining oddiy qay tarzdan iborat emas, ikkinchidan, ma’no o‘zgarishlari yasama so‘z ma’nosining ham o‘zgarishiga olib keladi. Natijada, yasama so‘z qismlari orasidagi semantik aloqadorlik susayadi va soddalashish hodisasi yuz beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Agar tilshunoslik taraqqiyotining 50-yillardagi bosqichida so‘zning qismlarga bo‘lina olish xususiyati keng muhokama qilingan bo‘lsa, keyinchalik bu masala so‘zning qismlarga bo‘lina olish darajasi va bu darajaning muayyan turlari ishlab chiqilishi bilan xulosalanadi. Chunki ana shu davrda o‘zbek tilshunosligida ham so‘zning morfem tuzilishi, morfemalarning qator kelishi, sodda va qo‘shma affikslar, affiksal omonimiya va sinonimiya masalalariga doir muhim tadqiqotlar bajarildi. A.G‘.G‘ulomov, A.P.Hojiyev, A.Berdialiyev, Y.T.Tojiyev, M.Jo‘raboyeva, T.Mirzaqulov (va b.) ishlari bu sirada alohida o‘ringa ega. Hozirgi tilshunoslik oldida ham aynan shunday vazifa turibdi: sinxron motivatsiya nazariyasining ishlab chiqilishi, bu jarayonga tarixiy omillarning ta’siri maxsus o‘rganilishi zarur.

ISSN 3030-3907

Yasama so‘z qismlari orasidagi munosabatning sinxron turlarini aniqlash nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ham ega. Turli lug‘atlar: morfem, so‘z yasalishi, etimologik, frazeologik lug‘at yaratish, so‘z tuzilishini belgilash va tahlil qilish kabi ishlarda qo‘l keladi. Negaki, o‘zbek tilshunosligida ham motivatsiya nazariyasi so‘z yasalishining bosh tushunchalaridan bo‘lib, bu hodisaning atroflicha o‘rganilishi fan taraqqiyoti mantiqidan kelib chiqadigan talabdir. Birliklar doirasida ham birikishning o‘ziga xos qulaylik yaratuvchi hamda cheklovchi omillari mavjud. Har ikki omil – ham qulaylik yaratuvchi, ham cheklovchi omillar bir umumiy natija – yasama so‘z tarkibida morfemalarning birikish qonuniyatlari haqida ma’lumot berishi kerak. Shuni inobatga olib, ayrim cheklovchi omillar haqida fikr yuritamiz.

O‘zbek tili so‘z yasalishiga xos xususiyatlar ularning shakllangan tabiatidan kelib chiqqanligidan, ularning birikishi ham (ma’lum qoidalarga tayanishi) tilning asrlar osha shakllangan sistema hosil qiluvchi tabiati bilan izohlanadi. Nominativ birliklarning transformatsiyasi (so‘z yasalishi), bu birliklarning formal-paradigmatik o‘zgarishlari (shakl yasalishi) tildagi universal semantik cheklash tufayli amal qiladi.

Jumladan, so‘z turkumlari so‘zlarning dastlabki yirik kategoriyasi bo‘lganligidan, keng ko‘lamli cheklash biror affiksning u yoki bu so‘z turkumiga taalluqli asos bilan birika olish qobiliyatida ko‘rinadi. So‘z yasovchi qo‘shimchalarning bir guruhi (masalan, -li, -lik, -la) bir necha so‘z turkumi doirasida integrativ (birlashtiruvchi) vazifada amal qilsa, ayrimlari esa, bir turkum doirasida amal qiladi (birinchi jarayonni prof. A.G‘.G‘ulomov tashqi yasalish, ikkinchi jarayonni ichki yasalish deb nomlagan).

So‘z yasalish jarayoni o‘z mahsuli natijasiga ko‘ra ko‘proq tilning diaxron aspektiga yo‘nalgan bo‘lsa, shakl yasalishi, ayniqsa, relyatsion formalar til birliklari o‘rtasidagi sinxron-sintagmatik aloqalarni ta’minlovchi vosita sifatida tilning muayyan bosqichdagi holati bilan bog‘liqdir. Chunki yangi so‘z, yangi lug‘aviy birlik har kuni yaratilavermaydi. A.G‘.G‘ulomovning ta’biri bilan aytganda, yangi so‘z turmushning talabi bilan tug‘iladi.

Ijtimoiy hayot, inson ongidagi o‘zgarishlar semantik siljishlarni mavjud materialni qayta muomalaga tushirish (ko‘p ma’nolilikni yuzaga keltirish), transpozitsiya, morfem birliklar sintagmalarida yangi ma’noni ifodalash kabi yo‘llar bilan mustahkamlashga ishlatiladi. Xususan, yangi sintagmatik birikuvlar o‘xshashlik (analogiya) yo‘li bilan mavjud modellar asosida yaratilaveradi. Masalan: sayilgoh, majlisgoh, qarorgoh kabi birikmalarga taqlidan o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi o‘yingoh (stadion), tayyoragoh (aeroport), oliygoh, ta’limgoh, bilimgoh yasalmalari yuzaga keldiki, bular jamiyatdagi turli xil kayfiyat va intilishlarni aks ettiradi.

ISSN 3030-3907

Tilda bir tushunchani ifodalash uchun bir necha sinonimik vositaning mavjud bo‘lishi tabiiy bir holdir. Shu bilan birga, yangi ma’no turli vositalar, jumladan, tub so‘z orqali, morfemalar birikuvi orqali bir ramzni turli pozitsiyaga o‘tkazish (transpozitsiya) orqali ifodalanishi mumkin. Til sathidagi semantik-funksional, differensiallashuv ana shu vositalarning qo‘llanish ko‘lamini ham belgilab beradi.

Masalan, til taraqqiyotidagi o‘zgarishlar shofyor-haydovchi, stanok-dastgoh, kosmonavt-fazogir, mashshoq-musiqachi kabi paradigmatik qatorlardagi biror komponentga imtiyoz berib tursa-da, neytral nutq talabi ko‘proq ikki qismli birlikka emas, balki tub so‘zga imtiyoz beradi.

Demak, ayrim o‘rinlarda yasalmadan kutilishi mumkin bo‘lgan ma’noni ifodalovchi tub so‘zning mavjudligi xuddi shu ma’nodagi yasama so‘zga, uning faollashuviga to‘sqinlik qiladi. F.de Sossyur til ramzlarining shartliligi (ixtiyoriyligi, erkinligi) haqida fikr yuritib, shartlilik absolyut va nisbiy tarzda bo‘lishini ta’kidlaydi. Nisbiy shartlilikda esa motivatsiya asosi uqilib turadi: bunday uqilish “sintagmatik tahlil qanchalik yengil ko‘chib, quyi sath birliklarining ma’nosi aniqroq bilinib turaversa, shunchalik to‘laroq bo‘laveradi”. [6]

NATIJA VA MUHOKAMA

Muayyan ikki tomonlama til birligi, jumladan, morfem birliklar, E.Benvenist konsepsiyasi bo‘yicha, umumiy semantik-signifikativ belgilarini paradigmatik qatorlarda namoyon etib, bu birlamchi ma’no qiyofasini kashf etish bo‘lsa, ikkilamchi ma’no qiyofasini kashf etish sintagmatikada amalga oshadi.

Demak, til birliklari birikuvi doirasida amal qiladigan semantik cheklashlar umumiy, universal xususiyatga ega. Ana shu cheklashlarning tabiatini to‘g‘ri idrok etmaslik morfemalar sintagmatikasida sun’iy birliklarni yuzaga keltirishi mumkin. A.G‘.G‘ulomov: “Tuxum sho‘rva, sut choy kabi qo‘shilmalarda ot (tuxum, sut) o‘zi uchun tipik bo‘lgan sintaktik funksiyada emas, balki sifat bajaradigan funksiyada qo‘llangan, lekin uning sifat kabi uqilishi boshqacha so‘z bilan birikishda va shu qo‘shilishdagi ma’nosi asosida kelib chiqadi, bu qo‘shilmadan ajralgach, yana otligicha qoladi...”, deya yozgandi. U “tuxumli”, “sutli” kabi formalarda shakllangan, endi sifat sanaladi, deb, “ot+ot” tipidagi izofali birikma bilan “sifat+ot” tipidagi birikmalarning munosabati haqida fikr yuritgan.

XULOSA

Umuman olganda, yangi pedagogik texnologiyalar asosida sintagmatika ham “dastlab yondosh elementlarning ma’nosi, keyin esa ularning shakl-shamoiliga amal qiladi. Valentligi ma’no jihatdan muvofiqlashgan shakllarning formal jihatdan ham moslashuvi talab etiladi. Shakllar birikuvidagi formal cheklashlar morfonologik qoidalar asosida bartaraf etiladi.

ISSN 3030-3907

So‘z yasalishi nuqtai nazaridan cheklash u yoki bu yasama asosdan yana yangi so‘z yasash imkoniyati bor-yo‘qligi bilan bog‘langan cheklashdir: ikkilamchi, uchlamchi affiksatsiya tufayli yasama so‘z yangi bosqichdagi yasama so‘z uchun asos bo‘ladi: suva+q; suvoq+chi; suvoqchi+lik, bich+iq; bichiq+chi; bichiqchi+lik va b.

Bu jarayonda avval tashqi yasovchi (transpozitsiya qiluvchi: tara (fe’l)+q: taroq – ot), keyin ichki yasovchi qo‘shiladi: taroq+chi; taroqchi+lik kabi. [7]

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida so‘z yasalishidagi aloqalar tilning tabiatiga, uning strukturasida mavjud bo‘lgan motivlovchi-motivlanuvchi munosabatlariga tayanadi. Bu munosabat shakl yasalishida ma’lum paradigma, nisbatan aniq model va qoidalarga tayansa, so‘z yasalishida esa, sintagmatik aloqaga kirishishi mumkin bo‘lgan birliklarni tegishli mahsuldor modellar orqaligina tasavvur qilish imkoni bor, xolos. Shu sababdan so‘z yasash ehtiyoji tufayli paydo bo‘ladigan sintagmalarni oldindan aytish, bashorat qilish, ularga xos yangi birikuvlarni taxmin qilish qiyin.

Albatta, tilning mohiyati har qanday qolip, andaza va qoidaga nisbatan boy va ko‘p qirralidir. Har qanday qoida va umumlashmalar eng yirik bog‘lanishlarni aks ettiradi, ana shunday bog‘lanishlar til sistemasida amal qiluvchi, o‘z asosiga ega bo‘lgan turli qonuniyatlar bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. G‘ G‘ulomov. O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida. I kitob. –T.: Fan, 1949.–B. 38 .
2.O‘zbek tili grammatikasi. I tom. –T .: Fan, 1975. –B 7-8.
3.O‘zbek tili grammatikasi. I tom. –T .: Fan, 1975. – B.15-16.
4.Nurmanov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –T .: Fan, 2002. -B. 5 -6.
5 Hojiyev A. O‘zbsk tilida so‘z yasalishi. –T.: O‘qituvchi, 1987.
6.Nurmanov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 6 -7 .
7.Hojiyev A. O‘zbek tili grammatikasi . Toshkent: 1975. –B. 14.

ISSN 3030-3907